

## “TOSHKENT SHOIRLARI” TAZKIRASIDA FUNUNIY SHAXSIYATI VA IJODINING YORITILISHI

*Sherg'oziyeva Gulnozaxon Adaxamjonovna*  
*Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*  
*+998994638514*

[gulnozashergoziyeva@gmail.com](mailto:gulnozashergoziyeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mo'minjon Muhammadjonovning “Toshkent shoirlari” tazkirasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan toshkentlik shoir, mudarris-olim, qori, adabiyotshunos, sozanda, navozanda sifatida faoliyat olib borgan Fununiy shaxsiyati va ijodi to'g'risidagi qarashlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Aloiddin maxdum-"Fununiy", Ziyoiddin Maxdum, “Toshkent shoirlari”, Toshkent adabiy muhiti, mudarris-olim.

Mo'minjon Muhammadjonovning “Toshkent shoirlari” tazkirasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan toshkentlik shoirlar, adiblar va qalam ahllarining tarjimai hollari, asarlaridan parchalar, she'rlaridan namunalar keltirilgan. Shuningdek, mana shu davrda turli viloyatlarda tug'ilgan, lekin ijod qilish asnosida Toshkentga kelib qolgan va shu yerda ijod qilib miqim yashab qolgan ijodkorlar ham adibning nazaridan chetda qolmagan. Adib Toshkent adabiy muhiti vakillarining tug'ilgan joylari, o'qigan maktab-madrasalari, qiziqishlari, kasb-hunarlarini, hatto vafot etishi bilan bog'liq ma'lumotlarni ham keltirib o'tgan. Adiblarning xarakteri bilan bog'liq holatlarga alohida ahamiyat qaratgan. Xususan, Fununiy (Aloiddin maxdum, Ziyoiddin Mahdum o'g'li) haqida yozar ekan, u otasi Ziyoiddin Maxdumdan madrasada tahsil olgani, dadasining qaysi fanlardan yaxshi bilim berganligi va Fununiyning 33 yoshida Qur'onni to'la yod olib qori bo'lganligiga ham alohida to'xtalgan: "Aloiddin maxdum-"Fununiy", o'z otasi Ziyoiddin Maxdumdai "xatmi kutub" qildi (madrasadagi dars o'quv ilmini tugatdi) ham 30 yoshlarga borganda mudarrislik unvoniga ega bo'lib, Baroqxon madrasasida mullobachcha (tolibulilm)larni yeg'ib, dars bera boshladi. Bu odam, arab nahv-sarfiga, mantiq, kalom, fiqh ilmiga, fors, tojik, o'zbek adabiyotiga ancha tajribakor va pishiq bo'lgan darslarni yaxshi tushuntirar erdi. Shu mudarrislik davrida, 33 yoshiga kirgandi quronni yod olib qori ham bo'ldi".

O'sha davrlarda ko'pchilikning toppish-tutishining yaxshi bo'lmagani, aksariyat xalq nochor yashagani bizga yaxshi ma'lum. Shunday bo'lsa-da, Fununiyning tabiatida ziqnalik bo'lmagani, qo'li ochiq kishi bo'lganini ta'kidlaydi: "Aloiddin maxdum-"Fununiy"ning ham qo'li ochuq-saxiy bo'lib, topkanini mullabachchalardan ayamas, o'ziga tekkan vaqf taqsimoti bormi, to'ylerden kiyib kelgan cho'ponlar bormi

mullabachchalarga taqsim qilib berar; -"Vaqf mullabachchalarning haqqi, boshqa odamlarning yeyishi to'g'ri emas!..." vaqfdan hech narsa yemas edi.

Shu bois Fununiy qassoblardan va do'kon egalaridan ko'pincha qarzdor bo'lib qolgani, otasidan meros qolgan bir parcha yerda o'z mehnati bilan dehqonchilik qilib, ro'zg'or tebratgani, tirikchiligi shu dehqonchilik orqasidan o'tganini aytib o'tgan va bu to'g'risida quyidagi parchada keltirilganidek "Yer-suv" nomli nomli she'r yozgan.

Haq mu box etkan biza o'rtoda qolg'on-yeru-suv

Kim olar, obod etar oniki bo'lg'on yeru suv.

Hovliyu, bog'u, haram, qasru, imorat bo'lg'usi

Ishlatar bo'lsang agar darding darmon -yeru-suv

Fununiy Toshkentning mashhur mudarrislaridan bo'lib, 35 yildan oshiqroq Baroqxon madrasasida dars bergani va eng kamida 500 ga yaqin mullabachcha (tolibul ilm) ni o'qitgani, shoirlilik bilan emas, mudarrislik va olimlik bilan mashhur bo'lgani, ancha kamtarin odam bo'lgani haqidagi ma'lumotlarni olamiz. Yozgan she'rlari ham nasihatlardan va ibratli so'zlardan iborat bo'lib, 50-60 tani tashkil qiladi. Quyidahi ilmsizlik haqida yozgan she'ridan ham bularni yaqqol sezishimiz mumkin:

Beilm aslot tilagandan "Inak" avlo

Ho'kuzlari qursun

Yo xoja bo'lib o'qumagandan eshak avlo

To'ng'uz nari tursun

Beilm kishi qilsa havo ko'chaga chiqsa

Fashshu-fash bir pul

Shahbozki, sayd olmasa andin peshak avlo

Kadkas nari tursun.

Juda ko'p ilm egalarida bo'lgani kabi Fununiy hayotida ham kitobga bo'lgan ayricha bir mehr, ilm olishga bo'lgan kuchli ishtiyoqni ko'rishimiz mumkin. U kitobni oddiy bir bilim olish vositasi deb qaramaydi, balki "ruhim hayotig'a asal", "Qabr xashtidan tanimg'a bir masal", "Tang'a rohat, jong'a yori bebadaldir-bu kitob" deya yuksak e'tirof etadi. Quyidagi misralarni o'qigan kitobxon Fununiyning hayotida kitobning o'rni beqiyos bo'lgani, uning kitobga muhabbati umr bo'yi kuchli darajada bo'lganini ko'rishi mumkin.

Qayga borsam menga tekkan bir kasaldir-bu kitob

Zaharsiz ruhim hayotig'a asaldir-bu kitob

Har kishi sevgoni bordir, har ko'ngulning xohishi,

Mening yoru hamnishini baho laldur-bu kitob

Bir o'lukmen dunyoda atrofim olg'ondir bitik

Qabr xashtidan tanimg'a bir masaldir-bu kitob

Gulshanu, gul sayrini tabam ko'rarga istamas

Tang'a rohat, jong'a yori bebadaldir-bu kitob

Men "Fununiy" umr jamin sarf qildim ko'rgali  
Yetmadim itmomig'a kayfulmahaldir-bu kitob,

Mo'minjon Toshqin Fununiy shaxsiyatiga to'xtalar ekan, uning shaxsiyatiga, kamtar va kichikko'ngil inson bo'lganiga urg'u beradi, quyidagi parchadan Fununiyning shuncha martabalarga erishgan inson bo'lsa-da, kibr, manmanlikdan yiroq inson bo'lganini anglashimiz mumkin: "Bu kishi, shunday kamtarin odam ediki, ko'p vaqt karjomani kesib olib, "Baroqxon" madrasasining iflos joylarini supurar, hatto holo joylariga kesaklar ushatib qo'yar va tozalab chiqar edi. Shu choqda ko'rgan odam, bu kishini madrasaning farroshimi deb gumon qilib, farroshlarga muomala qilgandek muomala qilar edi".

Xullas, Toshkent adabiy muhitining bir vakili hisoblangan Fununiy o'z davrining serqirra ijodkori sifatida nom qozongan. U mudarris-olim, qori, adabiyotshunos, shoir, sozanda, navozanda, dehqon sifatida har sohada faoliyat ko'rsatgan. Mo'minjon Toshqin uning tanburni juda yaxshi chalishini ham aytib o'tgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mo'minjon Muhammadjonov Toshqin. "Toshkent shoirlari" tazkirasi qo'lyozmasi.